



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 27-avgust, seshanba,
98 (23.975)-son

Bugun biz
tanlagan yo'l
kelajagimiz va
taqdirimizni
belgilaydi.

SH. MIRZIYOYEV.

Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

BIZ BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Sharq taronalari" o'n uchinchi xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimidagi nutqi

**Assalomu alaykum, muhtaram mehmonlar!
Qadri vatandoshlar!**

Hurmatli xonimlar va janoblari!

Bugungi shukuhli oqshomda sizlar bilan serquyosh O'zbekistonda, Vatanimizning bebaho gavhari bo'lmish azim Samarqand shahrida ko'rishib turganimdan baxtiyor-man.

Avvalambor, YUNESKO shafeligida o'tkazilayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivaliga tashrif buyurgan siz, muhtaram san'at namoyandalari, nufuzli faxriy mehmonlarimizga, xorijiy davlatlarning elchilari va xalqaro tashkilotlar vakillariga, ommaviy axborot vositalari xodimlariga chuqur minnatdorchilik izhor etaman.

Barchangizga samimiy hurmat-ehtirimimni bildirib, butun O'zbekiston xalqining salomi va ezgu tilaklarini yetkazishga ijozat bergaysiz.

Muhtaram festival ishtirokchilari!

Pandemiya tufayli yuzaga kelgan besh yillik tanaffusdan so'ng o'tayotgan "Sharq taronalari" festivalini san'atkorlar ham, muxlislar ham birdek sog'inagan, desam, haqiqatni aytgan bo'lsam. Shu bois, bugungi san'at bayrami barchamizni yangicha ruh va shukuh bilan o'ziga chorlamog'da.

Mamlakatimizda o'n uchinchi bor o'tkazilayotgan ushbu anjuman garchi "Sharq taronalari" deb atalsa-da, bugungi kunda u mohiyat e'tiboriga ko'ra, "Jahon taronalari" festivaliga aylanganiga barchamiz guvohimiz.

Bu haqiqatni birinchi festivalda 31 ta mamlakat vakillari qatnashgan bo'lsa, bu yil barcha qit'alaridagi 80 ga yaqin davlatdan 400 nafardan ziyod san'atkor va olimlar ishtirok etayotgani ham tasdiqlaydi.

O'tgan davr mobaynida Samarqandning yulduzli osmoni ostida qanchadan-qancha sehirli navolar, hayotbaxsh ohanglar yangradi. Ko'hna Sharq bag'rida tug'ilgan musiqiy qadriyatlar anjumanimiz tufayli xalqaro miqyosda keng e'tibor va e'tirof qozondi. Festival o'nlab mahoratli xonanda va sozandalarni, iste'dodli yoshlarni kashf etdi, ularning parvoziga qanot, ijodiga kuch va ilhom bag'ishladi.

Qadri do'stlar!

Dunyodagi jamiki xalqlar qatori o'zbek eli ham tinchlik va osoyishtalikni yuksak qadrlaydigan, oqko'ngil va bag'rikeng xalqdir. Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining tub mohiyatini ham turli davlatlar bilan tinchlik va hamkorlik, do'stona munosabatlarni rivojlantirish tamoyili tashkil etadi.

Shu ma'noda, yurtimizda "Sharq taronalari" anjumani bilan birga, xalqaro maqom san'ati, baxshchilik san'ati, hunarmandchilik festivallari, folklor va raqs san'ati bo'yicha "Buyuk ipak yo'li", "Lazgi" xalqaro festivallari, Toshkent xalqaro kinofestivali singari yirik madaniy tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Ular, ta'bir joiz bo'lsa, O'zbekistonning jahon ahlini tinchlik-totuvlikka, qardoshlik va ahillikka chaqiradigan ezgu da'vatidir.

Bunday chorlov hozirgi vaqtda g'oyat muhim ahamiyatga ega. Chunki bugun ko'z o'ngimizda dunyoning butunlay yangi, beqaror, xavotirli geosiyosiy va geoiqtisodiy arxitekturasini shakllanmoqda. Turli mamlakatlar o'rtasida nizo va adovatlar, qarama-qarshilik, ishonchsizlik muhiti kuchaymoqda. Jamiyatlar ichida ma'naviy tanazzul ildiz otmoqda. Notinch va tahlikali zamonada azaliy qadriyatlarni, odamiylik qiyofasini saqlab qolish tobora mushkul bo'lib bormoqda.

Mana shunday murakkab vaziyatda ilohiy sarchashmalardan quvvat olib, vaqt va makon chegaralari osha gumanistik ideallarni tarannum etadigan asl san'at, musiqa va adabiyot xalokkor kuch bo'lib maydonga chiqishi zarur.

Bugun biz tanlagan yo'l kelajagimiz va taqdirimizni belgilaydi. Bu ko'hna dunyo tinchlik va do'stlik bilan yashnaydi, yasharadi. Insonlar, xalqlar va davlatlar o'rtasidagi hamjihatlikni esa, birinchi navbatda, sizlar kabi ezgu niyatli ijodkorlar, sizlarning hamfikr va birdamligingiz, adabiy-madaniy hamkorlik mustahkamlaydi.

Aziz do'stlar!

Mana shu muhtasham maydonda mag'rur hilpirab turgan bayroqlarga qarang! Qaysi mamlakat, qaysi xalq timsollarini ko'rmaysiz bu yerda! Ular ifoda etadigan ranglar jilosi va garmoyasi, festivalda yangraydigan kuy va qo'shiqlar barchamizning ko'nglimizdagi olijanob orzu-intilishlar bilan uyg'un va hamohangdir. Shu holatning o'zi ham insoniyatning asli va nasli bir ekanidan dalolat bermaydimi?

Mana shunday ezgu va ulug' maqsadlarni o'z hayotining mazmuni deb bilgan siz, azizlarni — yetti iqlimdan kelgan tinchlik va do'stlik elchilarini bugun mehmondo'st va ma'rifati Samarqand ahli, butun O'zbekiston xalqi bag'rini ochib qarshi olmoqda.

Bizning xalqimiz azal-azaldan san'atga mehr va ixlos qo'yib yashaydi, musiqani inson ruhining ilohiy quvva-

ti deb biladi. Buyuk Sharq mutafakkirlari musiqa ilmi va tarixi, maqom san'ati, cholg'u sozlari haqida ajoyib asarlar yaratganlar. Biz barchamiz mana shunday o'lmas madaniy merosning vorislarimiz. Binobarin, bu ulkan merosni birgalikda o'rganish va keng targ'ib etish, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish oldimizda turgan eng muhim vazifadir.

Shu ma'noda, betakror Samarqand zaminida dunyoning taniqli ilm-fan va madaniyat arboblari ishtirokida mamlakatimizning madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha kuni kecha o'tkazilgan navbatdagi xalqaro ilmiy kongress muhim amaliy qadam bo'ldi.

Ushbu anjumanda mamlakatimiz madaniy-gumanitar hayotida o'ziga xos megaloyiha bo'lgan O'zbekistonda-gi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha yangi g'oya va tashabbuslar, qimmatli taklif va tavsiyalar bildirilgani bizni albatta mamnun etadi.

Ayniqsa, muqaddas musulmon dinining gumanistik mohiyatini ochib berish, islom avvalo ezgulik, tinchlik, ilm-ma'rifat va madaniyat ta'limoti ekanini yana bir bor ta'kidlash, islomofobiya ko'rinishlariga barham berishga qaratilgan sa'y-harakatlar nihoyatda dolzarbdir.

Fursatdan foydalanib, bugungi tantanamizda ishtirok etayotgan, O'zbekistonning chinakam do'stlari bo'lgan ushbu kongressning hurmatli a'zolariga jonajon Vatanimiz, xalqimizga ko'rsatayotgan yuksak hurmat va e'tiborlari uchun chin qalbdan minnatdorchilik bildiramiz.

Qadri do'stlar!

Bugungi kunda "Sharq taronalari" festivalining tarixi va an'analarini, Sharqning boy va rang-barang musiqiy madaniyatiga doir ma'lumotlarni o'zida mujassam etadigan alohida ensiklopediya va uning virtual shakli — ko'p tarmoqli axborot platformasini yaratishning vaqti keldi, deb hisoblayman.

Men ushbu qomusni tayyorlashda, jahonning turli muzey va kutubxonalar, arxiv va fondlarida tarqoq holda saqlanayotgan qimmatli ma'lumotlarni to'plash, ularning yagona bazasini yaratish va kelajak avlodlarga yetkazishdek ezgu va xayrli ishda barchangiz faol ishtirok etasiz, deb ishonaman.

Shu bilan birga, yurtimizda shakllangan ijobiy tajribadan kelib chiqqan holda, ushbu anjumanimizning ko'lami va jozibasini yanada oshirish maqsadida "Sharq taronalari" festivalining xalqaro Do'stlar klubini tashkil etishni taklif qilaman.

Ma'lumki, har bir festival davomida yangi-yangi musiqiy asarlar yaratiladi, muxlislar qalbidan joy oladigan dilbar kuy-qo'shiqlar ijro etiladi. Afsuski, mana shunday noyob taronalar ko'pincha faqat bir anjuman doirasida yangraydi, xalqaro miqyosda keng targ'ib qilinmaydi. Shu bois, festivalimizning barcha g'olib va sovrindorlari ishtirokida dunyo mamlakatlarining nufuzli sahnalarida katta-katta konsert dasturlarini namoyish etish taklifini bildirsam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaysizlar.

Muhtaram anjuman qatnashchilari!

"Sharq taronalari" festivali betakror Registon maydonida, "Yer yuzining sayqali" deb nom qozongan, asrlar bo'yi o'z tarovati va jahonshumul shuhratini saqlab kelayotgan afsonaviy Samarqand shahrida o'tkazilishi albatta bejiz emas.

Bundan ming yil avval Sharqning mashhur shoiri Abul-Fath al-Bustiy "Bu dunyo jannatining nomi erur Samarqand", deb yozgan edi. Bu haqqoniy baho nafaqat tarixiy, balki zamonaviy Samarqand uchun ham bag'oyat mos va munosibdir.

O'tmishda qanchadan-qancha karvon yo'llari o'tgan, qanday buyuk tarix va madaniyat yaratgan, shaharlar sarvari Samarqand bugun yana navqiron qiyofa kasb etib, dunyo hamjamiyatiga tinchlik salomini yo'llab turibdi.

Festival sharofati bilan xorijdan kelgan mehmonlarimiz Samarqandni yana bir bor o'zlari uchun kashf etar ekanlar, ne-ne shoirlar, ne-ne hoziflar kuylagan bu muazam shaharning bugungi jamoli, ochiqko'ngil va saxovatli xalqimizning ezgu fazilatlarini ularni albatta o'ziga maftun etadi, deb ishonamiz.

Fursatdan foydalanib, anjuman doirasida o'tkaziladigan "Sharq xalqlari musiqa madaniyati: globallashtirish jarayonlarida ijodiy uyg'unlashuv tamoyillari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Bugungi san'at bayramini yuqori saviyada tashkil etishga hissa qo'shgan, o'z kasbining ustasi va fidoyisi bo'lgan barcha insonlarga, mehnatkash va olijanob, mehdariyo Samarqand ahliga chin yurakdan tashakkur bildiram.

Dillarni dillarga, ellarni ellarga bog'laydigan "Sharq taronalari" olam uzra hamisha baralla yangrasin!

Festivalning barcha ishtirokchilariga omad va yutuqlar yo'lsin!



"SHARQ TARONALARI" — TINCHLIK VA HAMJIHATLIK ELCHISI

Samarqand shahrida 26-avgust kuni "Sharq taronalari"
XIII xalqaro musiqa festivali boshlandi

Sharq gavhari, yer yuzining sayqali Samarqand bayramlar og'ushida. Vatanimiz mustaqilligining 33 yilligi va "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivaliga ko'rilgan tayyorgarlik shaharga yanada fayz va chiroy baxsh etgan. Ko'cha va xiyobonlar, maydonlarda ekilgan turli tuman gullar, yo'llar chetidagi rango rang bayroqlar kishiga zavq beradi. So'lim bog' va xiyobonlar tarovati o'zgacha.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Imom Buxoriy majmuasi buyuk ma'naviy ustun bo'ladi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 26-avgust kuni Samarqandga tashrif buyurdi.

Ezgu qadriyatlarimizga muvofiq, avvalo Imom Buxoriy maqbarasi ziyorat qilindi. Qur'on tilovat etilib, duo o'qildi.

— Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yillik bayrami arafasida turibmiz. Ilohim, mustaqilligimiz bardavom bo'lsin, yurtimizga ko'z tegmasin. Xalqimizni rozi qilish bo'yicha ishlarimizga Allohning o'zi madadkor bo'lsin. Bu majmuani qurishdan maqsadimiz ham Imom Buxoriy bobomizning qadriini yanada ko'tarish, jahonga baralla aytishga asos yaratish. Bunday xayrli ishlarimiz ko'p bo'lsin, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ma'lumki, Prezidentimiz tashabbusi bilan Imom Buxoriy majmuasi yangidan barpo etilmoqda. Maqbara maydoni 600 kvadrat metr, balandligi 28 metr etib kengaytirilgan. 10 ming kishiga mo'ljallangan masjid bunyod etilgan. Majmuaning to'rt burchagidagi 75 metrlik minoralar unga ulug'vorlik bag'ishlagan. Bugungi kunda qurilish va muhandislik ishlari bitkazilib, pardozlash bosqichi boshlangan. Bunda milliy an'analar va issiq ranglarga alohida

e'tibor berilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu qurilish va pardozlash ishlari bilan tanishdi. Endi majmuada zamonaviy, xavfsiz boshqaruvni joriy etish zarurligini ta'kidladi.

— Bu majmuada buyuk ma'naviy ustun bo'lishi kerak, — dedi Prezident. Mutasaddilarga barcha tuman va shaharlardagi tabarruk ziyoratgohlarni tiklash, ularning tarixi va mazmunini to'g'ri talqin qilib yetkazish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Majmuada, shuningdek, muzey, naqshinkor ayvonlar, ma'muriyat va xizmat ko'rsatish binolari qurilmoqda. Davlatimiz rahbari bo'lajak muzeyni ham ko'zdan kechirdi.

Samarqandga tashrifi chog'ida davlatimiz rahbari Hazrati Hizr majmuasida ham bo'lib, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov maqbarasiga gul qo'ydi.

Qur'on oyatlari tilovat etilib, duo o'qildi.

President.uz

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan, G'arb va Sharqni bog'laydigan Samarqand azaldan nainki savdo-sotiq va iqtisodiy munosabatlar, balki ma'rifati markazi ham bo'lgan. Shuning uchun ham hamma davr va zamonlarda odamlar Samarqandga talpingan, uning go'zalligidan, ilm-ma'rifatidan bahramand bo'lishni istagan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bu muaz-zam shaharga mehri, yuksak e'tibori tufayli Samarqand bugun Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi-ga aylanmoqda va bu qadimiy kent jahon turizm biznesi markazlari qatoriga qo'shilmogda. Xalqaro diplomatiyada esa "Samarqand ruhi" degan tushuncha paydo bo'ldi va bu davlatlar, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, bag'rikenglik, ahillikni ifoda etmogda.

"Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali esa ana shu ruh, ezgu maqsadlarni ifoda etishi bilan bugun Samarqandgagina xos qadriyat darajasiga ko'tarildi va qisqa tanaffusdan so'ng yana azim shaharga qaytdi.

Dunyoda san'at va madaniyat yo'nalishida ko'plab festivallar, tanlovlar o'tkazilsa-da ularning aksariyati ma'lum vaqtdan keyin to'xtab qolishi, unutilib ketishi mumkin. Lekin "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali haqida bunday deyish noto'g'ri bo'ldi.

Tashkil etilganiga 27 yildan oshayotgan va shu paytgacha o'n ikki marta o'tkazilgan san'at festivali jahon ahlining o'zaro madaniy muloqotga bo'lgan hayotiy ehtiyojini ro'yobga chiqaruvchi vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi murakkab davrda insonlarni tinchlik, hamkorlikka chorlovchi va buni amalda namoyon etuvchi egzuglik minbariga aylanmoqda. Festival YUNESKO va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarning asosiy tadbirlari dasturidan o'rin olgani, ular tomonidan faol qo'llab-quvvatlanayotgani ham uning darajasi qanchalik yuqoriligidan dalolat beradi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan bu yil "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivalini o'tkazishga qaror qilindi va mazkur san'at bayramiga har qachongidan ham yuksak darajada tayyorgarlik ko'rildi. Dunyoning saksonga yaqin davlati vakillari festivalda qatnashish istagini bildirdi. Shuningdek, nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, taniqli madaniyat va san'at arboblari ayni paytda Samarqandda bo'lib turibdi.

26-avgust, soat 19.00. Registon maydoni nufuzli san'at anjumaniga tayyor. Moviy gumbazlar rang-barang chiroqlar yog'dusida jilolanadi. Maydon tomoshagohi va sahna atrofidagi gullar ifori dimoqqa xush yoqadi. Amfiteatrdagi "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimiga yig'ilgan odamlar bilan to'lgan.

Festival ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni qarsaklar bilan kutib oldi.

So'z O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga berildi.

Davlatimiz rahbari "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali ishtirokchilari va mehmonlarini qutlar ekan, mazkur festivalning mazmun-mohiyati, jahonda tinchlik va millatlararo totuvlikni ta'minlashdagi ahamiyatiga to'xtaldi.

O'n uchinchi bor o'tkazilayotgan ushbu anjuman garchi "Sharq taronalari" deb atalsa-da,

"SHARQ TARONALARI" – TINCHLIK VA HAMJIHATLIK ELCHISI



bugungi kunda u mohiyat e'tiboriga ko'ra, "jahon taronalari" festivaliga aylanganiga barchamiz guvohimiz. Bu haqiqatni birinchi festivalda 31 mamlakat vakillari qatnashgan bo'lsa, bu yil barcha qit'alardagi 80 ga yaqin davlatdan 400 nafardan ziyod san'atkor va olimlar ishtirok etayotgani ham tasdiqlaydi, – dedi davlatimiz rahbari.

Ta'kidlanganidek, bugungi notinch va tahlilali zamonda azaliy qadriyatlarini, odamiylik qiyofasini saqlab qolish tobora mushkul bo'lib bormoqda. Mana shunday murakkab vaziyatda ilohiy sarchashmalardan quvvat olib, vaqt va makon chegaralari osha gumanistik ideallarni tarannum etadigan asl san'at, musiqa va adabiyot xaloskor kuch bo'lib maydonga chiqishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, "Sharq taronalari"ning dunyoviy shuhrat topishi va e'tirof etilishi bejiz emas. Dinobarin, yurtimizda madaniyat, san'at rivoji bir necha ming yillik tarixga borib taqaladi va bugungi musiqa anjumanlari, festival va tadbirlar ana shu azaliy tomirlardan oziqlanadi, kuch oladi.

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, bizning xalqimiz azal-azaldan san'atga mehr va ixlos qo'yib yashaydi, musiqani inson ruhining ilohiy quvvati deb biladi. Buyuk Sharq mutafakkirlari musiqa ilmi va tarixi, maqom san'ati, cholg'u sozlari haqida ajoyib asarlar yaratganlar. Biz barchamiz mana shunday o'lmas madaniy merosning vorislarimiz.

Abu Nasr Forobiy "Musiqi haqida katta kitob" asarida tovushlarning vujudga kelishi, kuylar uyg'unligi, ritm o'lchovlari va turlarini sharhlab bergan. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" kitobida yurak, asab kasalliklarini musiqa vositasida davolash yaxshi samara berishini ta'kidlagan. Komil Xorazmiy Xorazm notasini ixtiro qilib, "Rost" maqomining debochasini ushbu notaga tushirgan.

qo'shiqchilik san'ati durdonalari ijro etiladi, zavqli raqslar dillarni jo'sh urdiradi. Tomoshabinlar bu qo'shiqlarga jo'r bo'ladi, raqsga tushadi.

Til va tarjimon tanlamas ohanglar dillarga kirib boradi. Har bir insonni, u qaysi yurt, qaysi millat, qaysi din vakili bo'lishidan qat'iy nazar, san'at orqali bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlashtiradi.

Festivalning nufuzi va qamrovi yil sayin oshib bormoqda. Ko'plab mamlakatlar, xalqaro madaniyat tashkilotlari, mashhur san'at namoyandalari unda qatnashish istagini bildirmoqda. Ayni paytgacha "Sharq taronalari"da dunyoning 120 dan ortiq davlatidan vakillar qatnashgan.

27-29-avgust kunlari xalqaro musiqa festivali ishtirokchilarining ko'rik-tanlovda chiqishlari namoyish etiladi. Ularning dasturlari xalqaro hay'at tomonidan professional (klassik) darajadagi xalq musiqasi va qo'shiq yo'nalishi hamda zamonaviy musiqa va qo'shiq yo'nalishi bo'yicha baholanadi. 30 avgust kuni festival g'olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi va ular ishtirokida konsert dasturi namoyish etiladi.

Festival qatnashchilari Registon maydonidagi asosiy sahnada tanlovda ishtirok etish bilan birga Samarqand shahri va Samarqand, Payariq, Oqdaryo, Tayloq, Pstdarg'om tumanlaridagi teatrlar, madaniyat va istrohat bog'larida konsert dasturlarini namoyish etadi.

An'anaga ko'ra, festival doirasida "Sharq xalqlari musiqa madaniyati: globallashuv jarayonlarida ijodiy uyg'unlashuv tamoyillari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkaziladi.

Unda musiqashunos olimlar, ilmiy-tadqiqot markazlari olimlari, musiqa yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda tadqiqotchilar ishtirok etishi kutilmoqda.

Bu yilgi konferensiya avvalgilari singari yalpi majlisdan iborat bo'lib qolmay, uch sho'bag'a bo'lingan holda ish olib boradi. Sho'ba majlislari davomida milliy mumtoz navolar, maqom namunalar va xalqimizing durdonalari asarlari taniqli san'atkorlar tomonidan jonli ijro etilib, mahorat saboqlari o'tiladi. Shuningdek, konferensiya doirasida ilk bor Turkiy davlatlar tashkiloti qoshidagi Turk dunyosi san'at va musiqa universitetlari ittifoqining yig'ilishini o'tkazish ko'zda tutilmoqda. 2022-yilda tashkil etilgan mazkur ittifoqqa turkiy davlatlardagi o'ndan ortiq san'at oliy ta'lim muassasalari a'zo hisoblanadi.

Festival doirasida Registon maydoni yaqinidagi O'zbekiston Badiiy akademiyasi Samarqand filiali ko'rgazmalar zalida milliy cholg'u asboblari ko'rgazmasi o'tkaziladi.

San'at bayrami ishtirokchilari va mehmonlari Samarqandning noyob tarixiy obidalarini ziyorat qilish, to'kin va farovon bozorlarimizni ko'rish, istiqol yillarida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari va mehmondo'st xalqimiz qadriyat, an'analari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Tantanali marosim yurtimiz san'at ustalari va yosh ijrochilarining diltor qo'shiqlari bilan davom etdi. Samarqand osmoni uzra porlagan mushaklar, "Sharq taronalari" musiqa festivali navolari olis-olislarda aks-sado berdi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
G'olib HASANOV,
O'ZA maxsus muxbirlari.**

MUKOFOTLAR MUBORAK!

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 24-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz uch yilligi munosabati bilan fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, adabiyot, madaniyat, san'at sohalari va ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga ko'ra, viloyatimizdan quyidagilar faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlandi:

«O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi» faxriy unvoni bilan

JALOLOV Hojiqurbon - Respublika «Usta» uyushmasining «Golden Ganch Mansurjon» korxonasi ganchkor ustasi

II darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni bilan VAFAYEVA Xadicha

- faxriy pedagog

II darajali «Salomatlik» ordeni bilan

SA'DIYEV Zokir Rahmatovich - viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining gematologiya bo'limi mudiri

«Shuhrat» medali bilan

ABDULLAYEV Akbar Xalilovich - viloyat qo'g'irchoq teatri aktyori
BOZOROV Xurshed Abdullayevich - Samarqand davlat universitetining Biokimyoi instituti organik sintez va bioorganik kimyo kafedrasida professori

TOHIROV Rauf Rahmonovich - Respublika «Hunarmand» uyushmasi a'zosi, koshinkor usta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz uch yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga ko'ra:

«Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni bilan

TURDIMOV Erkinjon Oqbo'tayevich - Samarqand viloyati hokimi

«Mehnat shuhrati» ordeni bilan

ESHMURATOVA Matluba Narzullayevna - Oqdaryo tumanidagi «O'zbekiston» mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli

«Do'stlik» ordeni bilan

AZIZOV Farmon Izzatovich - «Nuroni» jamg'armasining Urgut tumani bo'limi raisi
MAMATQULOV Murodali Haydarovich - Samarqand shahridagi «Maroqand obod» davlat unitar korxonasi maxsus avtomashina haydovchisi

«Jasorat» medali bilan

AZAMATOVA Fotima Azamatovna - «Hunarmand» uyushmasining Paxtach tumani bo'limi a'zosi, kashtachi

«Shuhrat» medali bilan

(100 yoshdan oshganlar)

SAIDOVA Buvsara - Ishtixon tumani

«Shuhrat» medali bilan

ABDULLAYEV O'tkir Nurullayevich - Jomboy tumani shaxsiy tomorqa yer egasi

JAHONGIROV Tolib Muzaffarovich - Samarqand shahridagi «Shahrezada Sam Star Tour» mas'uliyati cheklangan jamiyati bosh direktori

JO'RAYEV Suxrob Mardonovich - Samarqand shahri obodonlashtirish boshqarmasi ko'kalamzorlashtiruvchisi

TOSHEV Sobirjon Qahhorovich - Samarqand shahridagi «Univer Pro Stile» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari taqdirlandi.

Prezidentimizning 2024-yil 25-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yilligi munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga ko'ra viloyatimizdan quyidagilar mukofotlandi:

«Jasorat» medali bilan

TAIROV Ruslan Karimovich - O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining Samarqand viloyati bo'yicha portlash xavfi bo'lgan predmetlarni zararsizlantirish maxsus otryadi bosh mutaxassisi

«Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan

IBRAGIMOV Ismatjon Nigmatjonovich - Samarqand shahar bo'yicha ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i

YUSUPOV Sa'dullo Nasrulloevich - Samarqand viloyati prokuraturasi bo'lim katta prokurori

Davlatimiz mustaqilligining 33 yillik bayramini munosib nishonlash maqsadida joriy yilning 24-25-avgust kunlari yurtimiz bo'yab umumxalq xayriya hashari tashkil etildi. «Mahalla obod - yurt obod» shiori ostida o'tkazilgan ezgu tadbirida samarqandliklar ham faol ishtirok etdi.

Mahalla obod – yurt obod

Ma'lumotga ko'ra, obodonlashtirish tadbirlariga 1 million 923 ming nafarga yaqin aholi, jumladan, 423539 nafar yoshlar jalb etildi. Mahallalardagi 4789 ta markaziy ko'cha va 15161 ta tor va berk ko'cha tozalani, hududdan 1690,7 tonna maishiy chiqindi olib chiqildi.

Samarqand shahridagi Qir mahallasida hasharchilar xayrii ishini erta tongdan boshladi. Mahallaning ko'cha va yo'lakchalari, ariq bo'ylari tozalani, daraxtlar oqlandi. Kam ta'minlangan, yakka-yolg'iz fuqarolar holidan xabar olindi.

- Mahallamiz ko'chalari doim saranjom bo'ladi, tozalikka alohida e'tibor beramiz, - deydi mahalla raisi Mamatqul Boltayev. - Shunday bo'lsa-da,

hasharning o'rni boshqa. U xalqimizni yanada hamjihat, faol bo'lishga, yoshlarni esa milliy an'analirimizni hurmat qilishga o'rgatadi. Xayriya ana shunday qadriyatlarimizning eng ulug'idir. Bu gal hasharda 2-sektor rahbari va tadbirkorlarimiz ko'magi bilan bir nafar kam ta'minlangan oilaning xonadonini ta'mirlashga erishdik.

Hasharda mahallalardagi jami 414,5 kilometr ariq va zovurlar tozalandi, 6531,7 gektar yer maydoni, 1582 ta qabriston hamda 824 ta ziyoratgohda obodonlashtirish ishlari olib borildi. 829 ta yolg'iz keksa avlod vakili xonadoni tartibga keltirilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj 66 nafar fuqaroning xonadoni ta'mirlab berildi.



«Parij–2024»: samarqandlik besh nafar sportchi Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etadi

28-avgust – 8-sentabr kunlari Fransiyaning Parij shahrida XVII yozgi Paralimpiya o'yinlari bo'lib o'tadi.

Bu galgi o'yinlarga 65 nafar o'zbekistonlik para atlet 9 sport turidan (parayengil atletika, para taekvondo, para o'q otish, para suzish, para kanoe, para akademik eshak eshish, para dzyudo, para pauerlifting va para velosport) jami 113 ta litsenziya qo'lga kiritdi. Bu O'zbekiston Paralimpiyasi tarixida rekord ko'rsatkich hisoblanadi. 2016-yil paralimpiyachilarimiz Rio de Janeyro shahrida bo'lib o'tgan o'yinlarga 32 ta, Tokioda paralimpiyasiga o'yinlarga

70 ta litsenziyani qo'lga kiritgan edi.

Musobaqada besh nafar samarqandlik sportchi-parayengil atletika bo'yicha Husniddin Norbekov, Kubaro Hakimova, Urganchbek Egamnarov hamda para pauerlifting bo'yicha Qudratoy Toshpo'latova va para dzyudodan Uljon Amriyeva yurtimiz sharafini himoya qiladi.

Sportchilarimiz "Parij-2024" XVII yozgi Paralimpiya o'yinlariga kuzatilgan bo'lib, para atletika bo'yicha jahon va qit'a chempioni, Osiyo hamda Olimpiya o'yinlari g'olibi samarqandlik Husniddin Norbekov O'zbekiston delegatsiyasi bayroqdorlari tarkibida bayroqdorlik qilmoqda.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi hamda O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va omallashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyatining shu mavzudagi VIII xalqaro kongresi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Kinematografiya agentligi, IRSIKA, TURKSOY kabi tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan mazkur nufuzli tadbirning ochilish marosimi "Buyuk ipak yo'li" xalqaro turizm markazida o'tkazildi. Kongresda dunyoning 35 davlatidan



Buyuk ajdodlar merosi – Uchinchi Renessans asosi

300 ga yaqin olim va ekspertlar ishtirok etdi. Tadbir davomida forum, yettita shu'ba yig'ilishi, o'nlab davra suhbatlari, taqdimotlar, ilmiy muloqotlar tashkil qilindi, 300 dan ortiq ma'ruzalar tinglandi.

– Bugungi kunda o'zbek tili va adabiyoti, Alisher Navoiy qo'lyozmalarini o'rganish bilan mashg'ulman, – deydi Istanbul

universiteti professori Emek O'shenmez.

– Bundan ming yil avval Movarounnahr, ya'ni Samarqand va Buxoro zaminida yozilgan Qur'on tarjimai bilan shug'ullanyapman. Kongresda qilgan ma'ruzamda yangi topilma – Oltin O'rda xoni O'zbekxon Sulton Muhammad amri bilan yozilgan Qur'on haqida ma'lumot berdim. Bundan 700 yil ilgari yozib qoldirilgan mazkur O'zbekxon Mus'hafi Turkiyadagi kutubxonada saqlanyapti. Bugungi tadbirga uning suratlarini o'zim bilan birga olib kelganman.

Kongres dasturi bo'yicha "O'zbekiston madaniy merosi", "O'zbekiston Qur'onlari" turkumidagi Butunjahon jamiyatining asosiy loyihalari va qo'lyozmalarining faksimil taqdimotlari ham o'tkazildi.

"Al-Furqon" fondi rahbari Sali Shaxsuvaring buyuk vatandoshimiz Qaffol Shoshiyning nodir qo'lyozmalari, Qozog'iston Milliy kutubxonasi xodimi Galshat Abikovaning Alisher Navoiyning qo'lyozma va tosh-



bosma asarlari, italiyalik olim Franchesko Fiorentinoning temuriylar san'atining safaviylar davri gilamlariga ta'siri, Rossiyaning "Sila sveta" kompaniyasining Imom Buxoriy innovatsion muzeyi uchun taklif etgan "Vaqt kapsulasi", Hindistondagi Ibn Sino akademiyasi direktori doktor Sayid Zillur Rahmonning Ibn Sino yaratgan yurak dorisining o'rganilishiga bag'ishlangan ma'ruzalari anjuman qatnashchilarida katta

qiziqish uyg'otdi.

Kongresda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining yangilangan konsepsiyasi, keyingi yillarga mo'ljallangan yo'l xaritasi, kongresning rezolyutsiyasi qabul qilindi. Markazning xalqaro kengashi tuzilishi haqidagi qaror va uning tarkibi tasdiqlandi.

To'liq SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Abdullayev Raxim Karimovichga (2023-yil 12-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Xalikov Mansur Xudoyberdiyevichga (2012-yil 27-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Kudratov Murodiloga (2024-yil 20-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahatov

O'lmas To'rayevich notarial idorasida marhum Umarov Irkinga (2022-yil 13-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahatov O'lmas To'rayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi, 26-uy. Telefon +99890-502-69-86.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Ablakulova Robiyaga (2023-yil 11-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum

Kazakov Abdullaga (2019-yil 25-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Tishayev Madiga (2005-yil 27-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Murzin Aleksandr Vladimirovichga (2024-yil 29-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu muno-

sabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

BEKOR QILINADI

"MY-INSURANCE" AJ ST Samarqand viloyat filialiga tegishli MI-A4 seriyali 0050756 raqamli va "MY-INSURANCE" AJ ST "Bog'ishamol" sug'urta xizmatlari markaziga tegishli MI-A4 seriyali 0000335, 0012711, 0012712, 0012723, 0012832, 0012833 raqamli sug'urta polislarini yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Payariq tumanidagi Ismatova Kibora Nasimovna yakka tartibdagi tadbirkorining (STIR: 604402999) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Marhum Chitishov Zayirga tegishli Samarqand tumani «Qorasuv» mahallasida joylashgan uy-joyning kadastr hujjatlarini to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

"URGUT SAVDO KOMPLEKSI"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

viloyatimiz
ahli va
mehmonlarini
istiqlolimizning
33
YILLIGI
bilan
muborakbod
etadi!



Xizmatlar litsenziyalangan.

"SAMARQAND KAMALAK INVEST TEKSTIL"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

Xalqimizni
MUSTAQILLIK KUNI
bilan tabriklaydi!



Mahsulotlar sertifikatlangan.

"JAHON TARONALARIGA AYLANAYOTGAN SHARQ TARONALARI"

26-30-avgust kunlari Samarqandda "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivali o'tkazilmoqda. Qadimiy va hamisha navqiron shaharda mazkur san'at bayramiga yuqori saviyada hozirlik ko'rildi. Dunyoning 80 ga yaqin davlatidan taniqli madaniyat va san'at arboblari, sozanda va xonandalar festivalda qatnashish istagini bildirdi. Quyida xalqaro musiqa bayrami tarixiga oid ayrim ma'lumotlar va bu yilgi festivalga tayyorgarlik jarayonlari haqida to'xtalib o'tamiz.



BOSH SOVRINNI KIMLAR OLGAN?

Xalqaro musiqa festivali bosh sovrin mukofoti 10 ming AQS dollarini tashkil etadi. Shu paytga qadar 12 bor o'tkazilgan festivalda bosh sovrinni kimlar qo'lga kiritgan?

1997-yilda Simara Imanova (Ozərbayjon), 1999-yilda Nasiba Sattorova (O'zbekiston), 2001-yilda bosh sovrin berilmagan, 2003-yilda "Uranhay" ansambli (Rossiya, Tuva Respublikasi), 2005-yilda bosh sovrin berilmagan, 2007-yilda "Quvayt" musiqa guruhi (Quvayt), 2009-yilda Lale Begnazarova (Turkmaniston), 2011-yilda "Lider" musiqiy guruhi (Rossiya), 2013-yilda Rashmiya Agarval (Hindiston), 2015-yilda "Jiangsu" ayollar orkestri (Xitoy), 2017-yilda Sohib Poshshazoda (Ozərbayjon), 2019-yilda Mehriqor Abdurashidova (O'zbekiston).



Odri AZULE, YUNESKO Bosh direktori (2017-yil):

- Samarqandning go'zalligi va ulug'vorligi «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali ochilishida ko'rindi. Bu madaniyat odamlarni birlashtira oladigan kuch ekanining isboti. YUNESKOning insoniyatni birlashtirishdagi roli mana shunda namoyon.



BU YILGI FESTIVALGA QANDAY TAYYORGARLIK KO'RILDI?

Festivalning asosiy sahnasi Registon maydonida tashkil etildi. Rejissyor Shamsiddin Usmonov boshchiligidagi yurtimizning taniqli madaniyat va san'at namoyandalari hamda rejissyorlaridan iborat ijodiy guruh tomonidan festival ochilish marosimiga qariyb bir oy davomida tayyorgarlik ko'rildi.

Bundan tashqari, Samarqand shahri va Samarqand tumani hududidan o'quvchi Siyobcha kanali ikki qirg'og'i bo'ylab 36 kilometr piyodalar va velosiped yo'laklari barpo etildi. Mehmonlar ushbu hududlarda ham sayr qilib, hunarmandlar ko'rgazmasi, madaniy dasturlardan bahramand bo'lishlari mumkin. Festival ishtirokchilari tanlov dasturidan tashqari vaqtda Samarqand shahri va yaqin tumanlardagi to'qqiz joyda, istirohat bog'lari, amfiteatrlarda konsert dasturlarini namoyish etadi.



FESTIVAL ISHTIROKCHILARI XALQARO MUSIQA BAYRAMI HAQIDA

Pavlo PETROSELLI, "Sharq taronalari" X xalqaro musiqa festivali hakamlar hay'ati a'zosi (Italiya), 2015-yil:

— "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali jahon miqyosida nishonlanadigan eng nufuzli madaniy tadbirlar sirasiga kiradi. Ushbu anjuman G'arb va Sharq musiqa olamining mushtarakligi, uyg'unligini yana bir karra namoyon qilmoqda. Yevropa xalqlari Sharq musiqasini qanchalik qiziqish va maroq bilan tinglashsa, sharqliklarning G'arb kuy-qo'shiqlariga e'tibori shunchalik kuchli. Mazkur festivalda bu ikki qit'a san'atining yanada sayqal topishiga aminman. O'zbekiston bu borada juda to'g'ri va uzoqni ko'zlab ish olib boryapti.



2019-yilgacha o'tkazilgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali tanlovida 36 mamlakat vakillari g'oliblar safidan joy egallagan.

O'zbekistonlik san'atkorlar 9, Janubiy Koreya 7, Ozərbayjon 6, Xitoy 5, Eron va Hindiston vakillari 4 marotabadan g'oliblikni qo'lga kiritgan.

Shuningdek, Rossiya, Italiya, Gruzija va Quvayt guruhlari 3 marta, Turkiya, Mo'g'uliston, Tojikiston, Afg'oniston, Bangladesh, Isroil, Turkmaniston, Litva, Yaponiya san'at ustalari 2 martadan g'oliblar qatorida e'tirof etilgan.

Qozog'iston, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Gretsiya, Misr, Keniya, Malayziya, Madagaskar, Burkina Faso, Buyuk Britaniya, Avstriya, Polsha, Estoniya, Kosta-Rika, Qirg'iziston va Indoneziya jamoalari esa bir martadan sovrindor bo'lgan.

MAHALLIY VA XORIJLIK JURNALISTLAR UCHUN MATBUOT MARKAZI TASHKIL ETILDI

Samarqand shahridagi Yoshlar markazida xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun festival matbuot markazi tashkil qilindi.

Matbuot markazida 80 ta kompyuter va printer o'rnatilgan, ular yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulangan.

Ommaviy axborot vositalari xodimlari matbuot markazida festival doirasida Registon maydonida bo'lib o'tayotgan barcha tadbirlarni katta ekran orqali online rejimida kuzatib borishi mumkin. "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivalini yoritish uchun xorijdan 50 nafarga yaqin ommaviy axborot vositalari xodimlari kelishi ma'lum qilingan.

Respublikamizning 70 nafardan ko'proq jurnalistlari, shuningdek, viloyatimizdagi ommaviy axborot vositalari vakillari va blogerlar xalqaro musiqa festivali doirasidagi xabarlarini o'z axborot resurslari orqali tarqatishlari uchun "Matbuot markazi"da ishlamoqda.



Mehriqor ABDURASHIDOVA, "Sharq taronalari" XII xalqaro musiqa festivali bosh sovrini sohibasi (2019-yil):
— Aslida "Sharq taronalari"da ishtirok etish, Registonda qo'shiq kuylashning o'zi katta sharaf. Bu festivalda g'olib bo'lish esa barcha ishtirokchilarning eng katta orzusi hisoblanadi. Bizga ana shunday baxt nasib etganidan xursandmiz.



YUNESKO Bosh direktori Irina Bokova 2013-yilda "Sharq taronalari" to'qqizinchi xalqaro musiqa festivali ochilish marosimida ishtirok etgan.



Italiyalik qo'shiqchi Al Bano 2011-yilgi festivalning ochilish marosimida qatnashib, «Felicitia» qo'shig'ini ijro etgandi.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 664 nuxxada chop etildi. Buyurtma 444. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonaning manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

